XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-021-7-104-K/24 Toyloq tumani

Toyloq tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, Budjet kodeksining 27- va 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/10-38/3519-sonli, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 14-noyabrdagi 01/01/1037-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-sonli qarorga muvofiq, Toyloq tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **134289,1**mln.so‘m va xarajatlari esa **134289,1** mln.so‘m ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi Toyloq tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1029,0** mln so‘m etib belgilanganligi hamda tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlar va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1804,1 mln so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 3-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Sharipov), tuman soliq inspeksiyasi (Z.Sindorov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Maskur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova), “Qo‘shchinor” gazetasi tahririyati (M.Yuldashova)lar tomonidan ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Sidikov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



BABONAZAROV
BAXODIR
KADIROVICH

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-7-104-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toyloq tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**134 289 067**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	12 009 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	56 766 00
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 288 000
4	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	9 416 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 389 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	14 533 867
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 589 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 911 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	269 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 897 200
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	221 000

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-7-104-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Toyloq tumani mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**134 289 067**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	38 916 850
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 671 407
2	Madaniyat bo‘limi	8 101 281
4	Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi	5 643 109
5	Tuman sport maktabi	8 100 344
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 628 668
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 328 074
8	*Irrigatsiya bo‘limi*	1 800 000
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 136 250
10	Hokimiyat	49 168 905
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”	55 125
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	34 022 100
	“Mahalla budjet” jamg‘armasi mablag‘lari	2 488 000
	Zahira jamg‘armasi	1 804 089
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	722 255
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	154 827
	Axborot-kutubxona markazlari	567 428
12	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	14 743 331

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-7-104-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Toyloq tumani 2025-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Adas MFY	38 720 000	1,74	67 372 800
2	Beklar MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
3	Birlik MFY	38 720 000	1,74	67 372 800
4	Bog‘izog‘on MFY	38 720 000	1,74	67 372 800
5	Bog‘ichinor MFY	38 720 000	1,74	67 372 800
6	Bunyodkor MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
7	Vorsin MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
8	Galabotir MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
9	G‘o‘lba MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
10	Gulobod MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
11	Davlatobod MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
12	Do‘stlik MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
13	Jalolobod MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
14	Jumabozor MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
15	Zarafshon MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
16	Ilmobod MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
17	Istiqlol MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
18	Qo‘rg‘oncha MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
19	Qo‘shchinor MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
20	Madaniyat MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
21	Muborak MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
22	Navbahor MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
23	Navzandak MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
24	Nayman MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
25	Nurafshon MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
26	Baxshitepa MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
27	Nuroniy MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
28	Olmazor MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
29	Ravot MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
30	Saribozor MFY	38 720 000	1,24	48 012 800

31	Sariosiyo MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
32	Sochak MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
33	Talliota MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
34	Taraqqiyot MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
35	Tepaqishloq MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
36	O‘zbekiston MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
37	Uzunqishloq MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
38	Ukrach MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
39	O‘ray-elipok MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
40	O‘rtaqishloq MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
41	Fayziobod MFY	38 720 000	1,35	52 272 000
42	Xonchorbog‘ MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
43	Xo‘jaqishloq MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
44	Xo‘jayuz MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
45	Charog‘bon MFY	38 720 000	1,74	67 372 800
46	Chorbog‘tepa MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
47	Shopo‘lot MFY	38 720 000	1,74	67 372 800
48	Eskijuma MFY	38 720 000	1,42	54 982 400
49	Yangi hayot MFY	38 720 000	1,24	48 012 800
50	Yastepa MFY	38 720 000	1,35	52 272 000

Xalq deputatlari Toyloq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-021-7-104-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Hudud nomi	Toyloq tumani 2025-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi	Koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	Adas MFY	320,4	1,28	410,1
2	Beklar MFY	320,4	1,05	336,4
3	Birlik MFY	320,4	1,28	410,1
4	Bog‘izog‘on MFY	320,4	1,28	410,1
5	Bog‘ichinor MFY	320,4	1,28	410,1
6	Bunyodkor MFY	320,4	1,05	336,4
7	Vorsin MFY	320,4	1,05	336,4
8	Galabotir MFY	320,4	0,91	291,6
9	G‘o‘lba MFY	320,4	1,05	336,4
10	Gulobod MFY	320,4	1,05	336,4
11	Davlatobod MFY	320,4	1,05	336,4
12	Do‘stlik MFY	320,4	0,91	291,6
13	Jalolobod MFY	320,4	0,91	291,6
14	Jumabozor MFY	320,4	0,91	291,6
15	Zarafshon MFY	320,4	0,91	291,6
16	Ilmobod MFY	320,4	1,05	336,4
17	Istiqlol MFY	320,4	1,05	336,4
18	Qo‘rg‘oncha MFY	320,4	1,05	336,4
19	Qo‘shchinor MFY	320,4	0,99	317,2
20	Madaniyat MFY	320,4	1,05	336,4
21	Muborak MFY	320,4	1,05	336,4
22	Navbahor MFY	320,4	1,05	336,4
23	Navzandak MFY	320,4	0,99	317,2
24	Nayman MFY	320,4	1,05	336,4
25	Nurafshon MFY	320,4	1,05	336,4
26	Baxshitepa MFY	320,4	1,05	336,4
27	Nuroniy MFY	320,4	0,91	291,6
28	Olmazor MFY	320,4	1,05	336,4
29	Ravot MFY	320,4	1,05	336,4
30	Saribozor MFY	320,4	0,91	291,6

31	Sariosiyo MFY	320,4	0,99	317,2
32	Sochak MFY	320,4	1,05	336,4
33	Talliota MFY	320,4	0,99	317,2
34	Taraqqiyot MFY	320,4	0,91	291,6
35	Tepaqishloq MFY	320,4	0,99	317,2
36	O‘zbekiston MFY	320,4	0,99	317,2
37	Uzunqishloq MFY	320,4	1,05	336,4
38	Ukrach MFY	320,4	1,05	336,4
39	O‘ray-elipok MFY	320,4	0,91	291,6
40	O‘rtaqishloq MFY	320,4	0,99	317,2
41	Fayziobod MFY	320,4	0,99	317,2
42	Xonchorbog‘ MFY	320,4	1,05	336,4
43	Xo‘jaqishloq MFY	320,4	0,91	291,6
44	Xo‘jayuz MFY	320,4	0,91	291,6
45	Charog‘bon MFY	320,4	1,28	410,1
46	Chorbog‘tepa MFY	320,4	0,91	291,6
47	Shopo‘lot MFY	320,4	1,28	410,1
48	Eskijuma MFY	320,4	1,05	336,4
49	Yangi hayot MFY	320,4	0,91	291,6
50	Yastepa MFY	320,4	0,99	317,2